

## **Ommaviy axborot vositalari vakillarining Hay'at yig'ilishlarida ishtirok etishi**

Hay'at yig'ilishlarida ommaviy axborot vositalari vakillarining ishtirok etishi mumkinligi va zarurligini Soliq qo'mitasi raisi ijro etuvchining taklifi bo'yicha belgilaydi.

Ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif etish bo'yicha tashkiliy ishlar va ular uchun axborot materiallarini tayyorlash Soliq qo'mitasining Jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ommaviy axborot vositalari uchun axborot materiallari Hay'at yig'ilishiga tayyorlangan materiallarga zid bo'lmasligi kerak. Mazkur hujjatlarga Ijro etuvchi, Hay'atning mas'ul kotibi viza qo'yadi va Soliq qo'mitasi raisi bilan kelishiladi.

Ommaviy axborot vositalari vakillarini ro'yxatdan o'tkazishni Jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo'limi Soliq qo'mitasi rahbariyatini xabardor qilgan holda Tashkiliy-ishlar va nazorat boshqarmasi bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Ommaviy axborot vositalari vakillariga ish materiallari va Hay'at yakuniy materiallarining loyihalari berilmaydi.

**Soliq qo'mitasi Hay'ati** o'z faoliyatida amaldagi qonunlarga muvofiq qonuniylik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va boshqa yuqori turuvchi davlat organlariga bo'ysunish va hisobdorlik, boshqarishni markazlashtirish tamoyillariga amal qiladi.